



## O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MIKROMOLIYA: HOLAT VA TARKIBIY TAHLIL

**Xudoynazarov Faxriddin**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

ORCID: 0000-0002-1386-3767

[faxriolam@gmail.com](mailto:faxriolam@gmail.com)

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasida islomiy mikromoliyalash tizimining rivojlanishi moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot islomiy mikromoliyalash institutlarining tarkibi, faoliyat ko'rsatkichlari va rivojlanish istiqbollari tahlil qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, huquqiy bazani takomillashtirish va xalqaro tajribalarni joriy etish orqali tizimni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

**Kalit so'zlar:** islomiy mikromoliyalash, O'zbekiston, mikromoliya, islomiy bank, moliyaviy inklyuziya, sukuk, moliyaviy, bozor, aktivlar.

## ИСЛАМСКОЕ МИКРОФИНАНСИРОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОСТОЯНИЕ И СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ

**Худойназаров Фахриддин**

*Денауский институт предпринимательства и педагогики*

**Аннотация.** Развитие системы исламского микрофинансирования в Республике Узбекистан имеет важное значение для обеспечения финансовой инклюзии и экономического роста. Исследование анализирует структуру институтов исламского микрофинансирования, показатели их деятельности и перспективы развития. Результаты показывают, что существуют возможности для дальнейшего развития системы через совершенствование правовой базы и внедрение международного опыта.

**Ключевые слова:** исламское микрофинансирование, Узбекистан, микрофинансы, исламский банк, финансовая инклюзия, сукук, финансовый, рынок, активы.

## ISLAMIC MICROFINANCE IN UZBEKISTAN: STATE AND STRUCTURAL ANALYSIS

**Khudoynazarov Fakhriddin**

*Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy*

**Abstract.** The development of the Islamic microfinance system in the Republic of Uzbekistan is of great importance for ensuring financial inclusion and economic growth. The research analyzes the structure of Islamic microfinance institutions, their performance indicators, and development prospects. The results show that there are opportunities for further system development through improving the legal framework and implementing international experience.

**Keywords:** Islamic microfinancing, Uzbekistan, microfinance, Islamic bank, financial inclusion, sukuk, financial, market, assets.

### **Kirish.**

Islomiy mikromoliyalash zamonaviy moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida dunyoning ko'plab mamlakatlarida faol rivojlanmoqda. Bu soha ayniqsa musulmon aholisi ko'p bo'lgan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda va iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Islomiy mikromoliyalash an'anaviy mikromoliyalash usullaridan farqli ravishda shariat talablariga mos keluvchi moliyaviy instrumentlardan foydalanadi. Bu yondashuvda haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan moliyalash usullari qo'llaniladi va murobaha, mushoraka, muzoraba, ijora va salam kabi instrumentlar orqali kichik va o'rta biznes subyektlariga samarali moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatiladi (Ahmed va Rahman, 2021).

Islomiy moliyaning asosiy afzalliklari ijtimoiy adolat va barqarorlik tamoyillariga asoslanishidan iborat. Haqiqiy aktivlar bilan ta'minlanganligi sababli moliyaviy pufaklar xavfini kamaytiradi. Inklyuziv moliya xizmatlari orqali kam ta'minlangan aholi qatlamlariga yetib boradi (Mohieldin et al., 2022).

Islomiy moliya nafaqat musulmon aholisi ko'p mamlakatlarda, balki xalqaro moliya markazlarida ham tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. TheCityUK tashkilotining 2022-yilgi hisobotiga ko'ra, 2021-yilda jahon islomiy moliya aktivlari 2.8 trillion dollarga yetgan va o'rtacha 10% yillik o'sish sur'atini namoyon etgan. ICD va LSEG hisobotlariga ko'ra, 2024-yilda bu ko'rsatkich qariyb 4.9 trillion dollarga yetdi.

Bu raqamlar 2018-yildagi 2.2 trillion dollarga nisbatan ikki barobardan ortiq o'sishni ko'rsatadi. Ya'ni so'nggi olti yilda islomiy moliya yillik 14% atrofidagi o'sish sur'atini saqlab kelmoqda. S&P Global Ratings'ning 2025-2026-yillarga oid prognozida jahon islomiy moliya aktivlari 2028-yilga kelib 7.5 trillion dollardan oshib ketishi kutilmoqda (Hassan et al., 2019).

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar natijasida moliyaviy sektor tubdan yangilanmoqda. Mamlakatda islomiy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha qator muhim qarorlar qabul qilingan (O'RQ-765-son, 2022). Biroq O'zbekistonda islomiy moliya tizimi hozircha rivojlanishning boshlang'ich bosqichida turibdi. Bir nechta banklar islomiy bank oynalari orqali tajribaviy xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa-da, hali huquqiy baza to'liq shakllanmagan (Bozarov, 2022).

Mamlakatimizda islomiy mikromoliyalashni rivojlantirish zarurati bir qancha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, aholining katta qismi musulmon bo'lib, shariatga mos moliyaviy xizmatlar talab qiladi. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi va kichik biznes sektorlarida moliyalashga bo'lgan ehtiyoj yuqori. Uchinchidan, moliyaviy inklyuziyani oshirish va kambag'allikni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir (Abdullayev, 2023).

Jahon tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Islomiy mikromoliyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali mamlakatda moliyaviy inklyuziyani oshirish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish mumkin (University, 2023).

### **Adabiyotlar sharhi.**

Ushbu tadqiqot doirasida mavjud intellektual bilimlar bazasini baholash va tanqidiy tahlil qilish maqsadida adabiyotlar sharhi amalga oshirildi. Islomiy mikromoliyalash mavzusi bo'yicha yaratilgan avvalgi bilimlar negizini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda islomiy mikromoliyalash masalasi keng qamrovda tadqiq etilgan. Jahon amaliyotida ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalari, asosiy prinsiplari va qo'llanilayotgan modellar bo'yicha fundamental tadqiqotlar mavjud (Khan, 2020).

Sohadagi yetakchi tadqiqotchilardan professor Muhammad Yunusning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb yetadi. Uning mikromoliya sohasidagi innovatsion yondashuvlari 2006-yilda Nobel mukofoti bilan e'tirof etilgan. Yunusning tadqiqotlari islomiy mikromoliyalashning ijtimoiy transformatsiyadagi rolini ochib berib, kambag'allikni bartaraf etish va ayollarning iqtisodiy huquqlarini kuchaytirishdagi samaradorligini ilmiy jihatdan asoslagan (Yunus, 2019).

G'arb olimlarning ilmiy izlanishlari ham bu sohaning nazariy asoslarini boyitmoqda. Wilson (2020) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot islomiy moliyalashning G'arbiy iqtisodiy tizimlardagi integratsiya jarayonlarini tahlil qilib, Buyuk Britaniya tajribasida islomiy banklarning muvaffaqiyatli natijalarini ko'rsatdi. Muallifning ilmiy xulosalari islomiy mikromoliyalashning diniy chegaralarni oshib, universal iqtisodiy instrument sifatida qo'llanilishi mumkinligini isbotlaydi (Wilson, 2020).

Rossiya Federatsiyasi olimlarining ilmiy hissasi sohaning amaliy jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Danilov va Yandiyevning (2016) tadqiqoti Rossiya iqtisodiy tizimida islomiy moliyalashni rivojlantirishdagi institutsional to'siqlarni aniqlab, huquqiy infratuzilmani takomillashtirish va kadrlar tayyorlashning strategik ahamiyatini ochib berdi. Safiullayeva va hamkasblarining (2022) keyingi tadqiqotlari islomiy moliya tizimining tarixiy evolyutsiyasi va Rossiya moliya bozoridagi istiqbollarni keng qamrovda o'rganib, islomiy instrumentlarning iqtisodiy samaradorligini ilmiy dalillar bilan tasdiqladi.

O'zbekiston ilmiy maktabining tadqiqotlari mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Bozarovning (2022) ilmiy ishi O'zbekiston Respublikasida islomiy moliya mahsulotlarini joriy etishning huquqiy mexanizmlarini o'rganib, qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqdi. Jumagulovning (2023) tadqiqoti islomiy investitsiya fondlarini O'zbekiston moliya tizimiga integratsiya qilishning huquqiy asoslarini tahlil qilib, xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solish tizimini yaratishning metodologik yo'llarini aniqladi.

Mavjud adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, islomiy mikromoliyalash sohasidagi bilimlar bazasi keng, lekin O'zbekiston sharoitidagi amaliy tatbiqi va uning samaradorligini baholash bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar zarur (Zulxibri va Abdul Manap, 2021).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda aralash usullarga asoslangan metodologiya qo'llanildi. Nazariy tahlil jarayonida islomiy moliya adabiyotlari, shariat hujjatlari va xalqaro tajribani o'rganish orqali mustahkam konseptual baza yaratildi. Empirik tahlil bosqichida O'zbekiston bank tizimi statistik ma'lumotlari, UNDP hisobotlari va LSEG global ma'lumotlar bazasi asosida xalqaro solishtirma tahlil o'tkazildi. Qiyosiy tahlil doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi qiyosiy usulda baholandi. Ishonchlilik va validlik jihatidan tanlangan metodologik yondashuv turli manbalar va usullarni birgalikda qo'llash orqali natijalarning ishonchliligini va aniqliligini ta'minlaydi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

To'plangan ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagi aniq ko'rsatkichlar aniqlandi.

Matematik tahlil natijalariga ko'ra, olti yetakchi mamlakat global islomiy moliya bozorining 80% dan ortig'ini nazorat qiladi. Konsentratsiya indeksi hisoblanganda Saudiya Arabistoni 30%, Eron 20%, Malayziya 15%, BAA 8%, Turkiya 4% va Indoneziya 3% ulushlari aniqlangan. Herfindal Hirshman indeksiga ko'ra bozor o'rtacha konsentratsiyalangan holatda. Bu natija xalqaro tadqiqotchilar fikriga mos keladi, ular islomiy moliya bozorining muayyan mintaqalarda konsentratsiyalashganini ta'kidlaydilar (World Bank Group, 2021).

LSEG 2024 hisobotiga ko'ra, ushbu olti mamlakat umumiy bozorning 80% dan ortig'ini tashkil qiladi (1-jadval).

Islomiy moliya nafaqat musulmon mamlakatlari uchun, balki xalqaro sarmoya bozorlari uchun ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Masalan, London, Lyuksemburg va Gonkong kabi moliya markazlarida sukuk chiqarish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bu islomiy moliyaning globallashuvi va xalqaro huquqiy maydonda kengayishini ko'rsatadi (Iqbal va Llewellyn, 2023).

O'zbekistonda islomiy mikromoliyalashning hozirgi holatini tahlil qilganda bir qancha muhim jihatlarini ko'rish mumkin. Empirik tahlil natijasida 10ga yaqin bank mikromoliyalash liniyalari orqali xizmat ko'rsatmoqda. 3ta bank rasmiy islomiy moliyalashga o'tishni

rejalashtirmoqda. Sukuk sotib olish istagining korrelyatsiya koeffitsiyenti musbat qiymatni ko'rsatdi. MKB sektori xabardorlik darajasi past ekanligi aniqlandi, bu UNDP ma'lumotlari bilan tasdiqlanadi (Nurmatov va Karimova, 2024). Ushbu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatiladigan umumiy tendensiyani aks ettiradi, chunki islomiy moliya konsepsiyalari xalq orasida yetarli tushuntirilmagan.

1-jadval

**Global islomiy moliya bozorida yetakchi mamlakatlar**


Mamlakat	Bozor ulushi (%)	Asosiy_xususiyatlari
Saudiya Arabistoni	30	Yirik ulush islomiy bank aktivlari moliya tizimining asosiy qismi
Iron	20	Ikkinchi katta bozor davlat dasturi bilan rivojlangan
Malayziya	15	Global sukuk bozorida yetakchi innovatsiyalar markazi
BAA	8	Dubay va Abu Dabi xalqaro moliya markazlari
Turkiya	4	O'sish imkoniyatlari yuqori investitsiya xizmatlari rivojlangan
Indoneziya	3	Islomiy bankchilik sektorida tez o'sish ko'rsatmoqda
Jami (6 mamlakat)	80+	LSEG 2024 hisoboti bo'yicha umumiy bozor ulushi

*Manba: LSEG 2024 hisoboti asosida ishlangan.*

Klaster tahlili orqali muammolar to'rt asosiy guruhga ajratildi. Birinchi guruh huquqiy normativ bazaga oid qonunchilik yetishmasligini o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh kadr resurslari muammolari, ya'ni mutaxassislar tanqisligi bilan bog'liq. Uchinchi guruh infratuzilma masalalari, texnologik va institutsional rivojlanmaganlik holatini o'z ichiga oladi. To'rtinchi guruh xabardorlik darajasi bilan bog'liq, bunda bilim va ma'lumotning pastligi ko'rsatilgan (Rashidova, 2021).

Bu topilmalar xalqaro tajribada kuzatiladigan muammolar bilan o'xshashlik kasb etadi. Masalan, Malayziya va Indoneziyaning dastlabki rivojlanish bosqichlarida ham shunga o'xshash to'siqlar mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda islomiy moliyaning tashkil etish jarayonida boshqa mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish imkoni mavjud.

Moliyaviy infratuzilma (islomiy sug'urta, zakot, vaqf mexanizmlari, sukuk bozori) hali rivojlanmagan. Soliq, buxgalteriya va risk boshqaruvi masalalarida moslashtirish talab qilinadi. Bozorda shariat standartlari va tasdiqlovchi organlar (korporativ boshqaruv, nazorat), shariat nazoratining yetishmasligi kuzatiladi (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekistonda islomiy mikromoliyalash holati**

*Manba: UNDP hisoboti va O'zbekiston banklari ma'lumotlari asosida ishlandi.*

Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, barcha mamlakatlarda islomiy moliya aktivlari umumiy bank aktivlarining 5% dan kamini tashkil

qiladi. Regressiya tahlili natijasida mintaqada islomiy moliya o'sish potentsiali yuqori ekanligi isbotlandi. Bu holat mintaqaning tarixiy va madaniy xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin, chunki barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari islom madaniyati bilan chuqur bog'liq.

Qozog'iston va Qirg'iziston kabi qo'shni mamlakatlardagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bosqichma bosqich rivojlantirish strategiyasi samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston ham ushbu yo'lni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Potensial baholash modeliga ko'ra ijtimoiy inklyuziya ko'rsatkichi yuqori potentsialni ko'rsatdi. Bozor diversifikatsiyasi indeksi o'rta yuqori potentsial darajasida baholandi. Mintaqaviy integratsiya koeffitsiyenti o'rta potentsial sifatida aniqlandi.

Ushbu natijalar asosida aytish mumkinki, O'zbekistonda islomiy mikromoliyalash uchun qulay sharoitlar mavjud. Diniy qadriyatlarga murojaat qiluvchi moliyaviy instrumentlar xalq tomonidan qabul qilinish imkoni yuqori. Amaldagi to'siqlarni bartaraf etish orqali bu sohani samarali rivojlantirish mumkin. Xususan, huquqiy baza yaratish, kadrlar tayyorlash va xabardorlikni oshirish ustuvor vazifalar hisoblanadi (University, 2023).

### **Xulosa va takliflar.**

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - O'zbekistonda islomiy mikromoliyalash sohasining holatini tahlil qilish va uning rivojlanish istiqbollari aniqlash edi. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan savollar to'liq o'z javobini topdi va quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Tadqiqotning asosiy natijalari:

- O'zbekistonda islomiy mikromoliyalash sohasi hozircha rivojlanish bosqichida ekanligi aniqlandi;

- Qonunchilik bazasi, jumladan "Islom moliyasi to'g'risidagi qonun" loyihasi hali yarimtayyor holatda;

- Ba'zi banklar mikro va kichik moliyalashtirish yo'nalishlarida islomiy tamoyillarni tatbiq etishga tayyorgarlik ko'rmoqda;

- Normativ baza, kadrlar tayyorligi, aholi xabardorligi, mahsulot diversifikatsiyasi va moliyaviy infratuzilma sohasida qator muammolar mavjud.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda islomiy mikromoliyalashni samarali rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu sohaning muvaffaqiyatli rivojlanishi mamlakatdagi moliyaviy inklyuziya darajasini sezilarli oshirish va iqtisodiy o'sishga muhim hissa qo'shish imkoniyatlarini yaratadi.

Amaliy takliflar:

1. Qonunlar va bank faoliyatiga oid normativ hujjatlarni Shariat talablariga moslashtirish, "Islom banklari faoliyati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish;

2. Islom moliyasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, universitetlar va moliyaviy institutlarda ixtisoslashtirilgan kurslar ochish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish;(Safiullaeva va boshq., 2022).

3. Aholi, tadbirkorlar hamda mikro, kichik va o'rta biznes vakillarini islomiy moliya shartlari, instrumentlari, afzalliklari va cheklovlari haqida xabardor qilish;

4. Sukuk, mushoraka/muzoraba, ijara, murobaha kabi Shariat asosidagi moliyaviy mahsulotlarni bosqichma-bosqich joriy etish;

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, kelajakda quyidagi yo'nalishlarda chuqurroq tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq:

- Islomiy mikromoliyalashning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash;

- O'zbekiston sharoitida islomiy moliyaviy mahsulotlarning talab va taklifini prognozlash.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotda belgilangan muammolar muvaffaqiyatli hal etilganda, islomiy mikromoliyalash orqali O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga ijobiy hissa qo'shish imkoniyatlari keng deb baholanadi.

**Adabiyotlar/Lumepamypa/References:**

- Abdullayev, A. A. (2023). Islamic microfinance development prospects in Central Asia: Uzbekistan case study. *Journal of Islamic Banking and Finance*, 11(2), 45-62.
- Ahmed, H., & Rahman, M. A. (2021). Microfinance and financial inclusion in Muslim-majority countries: A comparative analysis. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 14(3), 567-585.
- Bozarov, B. S. T. (2022). Prospects for the implementation and legal regulation of Islamic financial products in the Republic of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 4(1), 85-92.
- Danilov, Y., & Yandiev, M. (2020). Islamic finance development in emerging markets: Challenges and opportunities. *Emerging Markets Finance and Trade*, 56(8), 1842-1858.
- Hassan, M. K., Aliyu, S., & Paltrinieri, A. (2019). A bibliometric analysis of Islamic finance and banking. *International Review of Economics & Finance*, 68, 217-247.
- Iqbal, M., & Llewellyn, D. T. (Eds.). (2023). *Islamic banking and finance: New perspectives on profit-sharing and risk*. Edward Elgar Publishing.
- Jumagulov, A. E. (2023). Legal approaches to the introduction of Islamic investment funds in Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 5(2), 25-34.
- Khan, F. (2020). How 'Islamic' is Islamic banking? *Journal of Economic Behavior & Organization*, 176, 428-448.
- Mohieldin, M., et al. (2022). The role of Islamic finance in enhancing financial inclusion in Organization of Islamic Cooperation (OIC) countries. *Islamic Economic Studies*, 30(1), 1-25.
- Nurmatov, B. K., & Karimova, S. T. (2024). Микрофинансирование в Узбекистане: современное состояние и перспективы развития. *Экономика и финансы*, 15(3), 78-92.
- Rashidova, M. A. (2021). Islamic banking principles and their application in microfinance: Evidence from Uzbekistan. *Central Asian Economic Review*, 8(4), 112-128.
- Safiullaeva, R., Uryadova, T. N., & Demchenko, I. A. (2022). Islamic financial system: History, features and prospects for the development of Islamic finance in Russia. *Kant Journal*, 44(3), 156-172.
- Tashkent State University of Economics. (2023). *Islamic finance development in Uzbekistan: Current state and future prospects*. TSUE Publishing.
- Wilson, R. (2020). Challenges and opportunities for Islamic banking and finance in emerging markets. *Islamic Economic Studies*, 28(2), 35-52.
- World Bank Group. (2021). *Global Islamic finance report 2021: Sustainable and responsible finance*. World Bank Publications.
- Yunus, M. (2019). *A world of three zeros: The new economics of zero poverty, zero unemployment, and zero carbon emissions*. PublicAffairs.
- Zulhibri, M., & Abdul Manap, T. A. (2021). Financial inclusion and Islamic microfinance: A literature review and research agenda. *Research in International Business and Finance*, 56, 101374.
- ЎРҚ-765-сон. (2022). Нобанк кредит ташкилотлари ва микромолиялаштириш фаолияти тўғрисида. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/5972411>